

O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan inson g'ururli, iftixorli bo'ladi.



O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan inson g'ururli, iftixorli bo'ladi.

Mamlakatimizning, xususan, qadim Surxon vohasining shonli tarixi yoshlarimizni mard va shijoatli bo'lishga, ilmu fan cho'qqilarini zabt etib, qiyinchilik va sinovlar oldida bosh egmay, marrani doimo baland olib yashashga undaydi.

“Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida Surxondaryoda o'tkazilayotgan festival doirasida Termiz Arxeologiya muzeyida tashkil etilgan “Surxondaryo tarixi bilimdoni” tanlovi yosh avlodni har tomonlama barkamol, buyuk ajdodlarimizdan ibrat olish ruhida tarbiyalashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.